XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 1 - mart VI-55-41-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Moliya bo‘limi mudiri J.Jo‘rayevning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi, tuman Moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshitilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan maqsadlarga yo‘naltirilsin;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-oktabrdag PF-6324-son Farmonining 3-bandiga asosan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini rag‘barlantirish” jamg‘armasiga uchun 3 (foizi) 45 278 000 (qirq besh million ikki yuzi yetmish sakkiz ming) so‘m;

tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi 46-son Farmoni ijrosi bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish uchun 2 (foizi) 30 185 000 (o‘ttiz million bir yuzi sakson besh ming) so‘m;

-tuman hokimiyatining ma’muriy binosini qo‘riqlash xizmatiga 75 000 000 (yetmish besh million) so‘m;

- tuman hokimligi xodimlariga (bo‘lim boshliqlari va mudirlari, bosh mutaxassis, hokim maslahatchisi, yetakchi mutaxassis va texnik xodimlari) oylik maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lovlarini to‘lash uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga 82 500 000 (sakson ikki milion besh yuz ming) so‘m;

- Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining 2022-yil 1-iyundagi VI-44-103-8-108-K/22-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga oylik maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lovlarini to‘lash uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga 15 000 000 (o‘n besh million) so‘m;

- tuman hokimligi orqali tumandagi “Ko‘zi ojizlar jamiyati”ning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga 10 000 000 (o‘n million) so‘m;

- tuman hokimligi orqali tumandagi Nogironlar jamiyatining ish haqi va unga tenglash tirilgan to‘lovlari uchun 5 000 000 (besh million) so‘m;

-tuman hokimiyatiga internet xizmati uchun 40 000 000 (qirq million) so‘m;

-tuman hokimiyatiga E-qaror platformasidan foydalanish uchun 12 000 000 (o‘n ikki million) so‘m;

-tuman hokimiyatiga hujjatlar uchun konvert va marka sotib olishga 5 000 000 (besh million) so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga aholining turmush tarzini yaxshilash maqsadida polietilen quvur sotib olish uchun 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi xo‘jaliklararo ichki yo‘llarda toshlash ishlarini olib borishda talab qilinadigan dizel yoqilg‘isi sotib olish uchun 84 000 000 (sakson to‘rt million) so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga "Sohibkor" mahallasida sel o‘zanini ta’mirlashda ishlatiladigan quvur olish uchun 18 000 000 (o‘n sakkiz

million) so‘m;

- tuman Sport maktabining isitish tizimini joriy ta’mirlash uchun 49 167 000 (qirq to‘qqiz million bir yuzi oltmish yetti ming) so‘m;

-tuman hokimligiga bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlariga saylov o‘tkazish uchun 15 000 000 (o‘n besh million) so‘m;

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 14-fevraldagi VI-54-35-8-108-K/23-sonli qaroriga asosan, “Faxriy deputat”, “Adolatli deputat”, “Xalqparvar deputat”, “Mehnatkash deputat” maqomini olgan deputatlar uchun bir martalik pul mukofotlari, sovg‘alar va boshqa xarajatlar uchun 5 000 000 (besh million) so‘m;

- tuman "Xalq va hayot" gazetasining veb saytini ochish uchun xarajatlarga 2 200 000 (ikki million ikki yuz ming) so‘m mablag‘lar yo‘naltirilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Babaqulov), tuman Moliya bo‘limi (J.Jo‘rayev)larga:

tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni maqsadli yo‘naltirilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.Mamatmuratov**